Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



Voleybolda holat va harakatlanish, yuqoridan va pastdan to'p uzatish texnikasi	772
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Методика формирования экологической культуры учащихся в процессе спортивного туризма	775
<i>Абдурахманов Отахон Рустамович</i>	
Методы преобразования и обработки текстовых задач в преподавании математики в начальных классах.....	780
<i>Азамкулов Ахтамкул</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativ-tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari.....	787
<i>Jumayeva Muxlisa Shokir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati .	793
<i>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish usullari	796
<i>Yusupova Madinajon Mansurbek qizi</i>	
Актуальность внедрения педагогики сотрудничества в современный учебный процесс на занятиях русского языка в группах с нерусским языком обучения	799
<i>Заболотина Анна Анатольевна</i>	
Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi	802
<i>Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldoshevna</i>	
Alisher Navoiy asarlarida odob-axloq masalalarining falsafiy va tarbiyaviy talqini	807
<i>Ahadova Feruzaxon Akmaljon qizi, Usmonova Sofiyaxon</i>	
Globalashuv sharoitida ayollar ruhiy salomatligini saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	810
<i>Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi.....	814
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonsova Marjona G'ulomovna</i>	
Maktabgacha ta'limda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda teatr texnologiyalarining qo'llanilishi	819
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Sharobiddinova Shahzoda Doniyorbek qizi</i>	
Talabalarda agressiv xatti-harakatlar shakllanishining omillari	823
<i>Sa'dullayeva Aziza Iskandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.....	829
<i>Farsaxonova Mastura Jalol qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni	836
<i>Kimsanov Jamshidbek Maxamatrasul o'g'li</i>	
O'qituvchilarda kasbiy so'nishning profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy-psixologik texnologiyalar	841
<i>Jamoliddinova Nigora Tohirjon qizi</i>	
Ta'limning raqamli modifikatsiyalari asosida talabalarining axborot mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar	846
<i>Xurramov Anvar Xudayshukurovich</i>	
O'zbek musiqiy merosining tarixiy-pedagogik rivojlanishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati	853
<i>Yuliyaxshiyev Sherali Narzullayevich</i>	
Учёт индивидуальных особенностей студентов национальных групп медицинского вуза в обучении русскому языку	857
<i>Мамаджанова Мохимир Рашидовна</i>	
Zamonaviy baholash texnologiyalari va xorijiy tajriba (boshlang'ich sinf "ona tili" darslari misolida).....	861
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasini boshlang'ich ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	867
<i>Abdug'afforova Aziza Abdurashid qizi, Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi</i>	
Axborotni tanqidiy baholash asosida talabalarining mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	871
<i>Abdullajonova Nurzoda Nurmaxamadovna</i>	

Harbiy xizmatchilar faoliyatida professional kuyish sindromining oldini olish	874
<i>Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi</i>	
Plifunksional yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	879
<i>Abduraxmanova Mukaddam Mirsalikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik asoslari	883
<i>Barotova Huriyatxon Uzoq qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli	887
<i>G'ofurova Sh. M.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati	892
<i>Jovmirzayeva Nargiza Kuvondikovna</i>	
Talaba sportchilarning mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilish xususiyatlari	895
<i>Matnazarov Anvar O'ktamovich, Jumonzarov Jaxongir Shixnazar o'g'li</i>	
Psixologik konsultatsiyada media ta'sirni inobatga olish zarurati	898
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Soft Tissue Control: In the Aesthetic Zone	901
<i>Murodkulov Samandar, Narziev Firdavs, Buzruksoda Javohir</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni.....	905
<i>N. T. Misirova, Xursanova Mohinur Abdujabbor qizi, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi</i>	
Klassik ustoz–shogird an'analari va ularni innovatsion ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari	910
<i>Raxmanova Nigora Xusanboyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari	914
<i>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni tadqiq etishning nazariy-metodologik muammolari.....	918
<i>Shakirova Feruza Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarni pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga mo'ljallangan web platformalarning imkoniyatlari	922
<i>Shamsutdinov Fazliddin Axmadovich</i>	
Talabalarda virtual jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari.....	926
<i>Sodikova Odinaxon Abdugapporovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modellari ...	930
<i>Suyunova Nargiza Abdurashid qizi</i>	
G'ovlar orasidagi ritmik masofa tuzilishining sportchilarning musobaqadagi natijalariga ta'sirini tahlil qilish	934
<i>Talipov G'ulomojon Adiljanovich</i>	
Efficacy of a New Ointment for the Treatment and Prevention of Alveolitis.....	938
<i>Umarov Maruf, Abdurazzaqov Kamoliddin, Buzruksoda Javohir</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi	941
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonova Marjona G'ulomovna</i>	
Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	945
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
6-7 yoshdagi bolalarni nutq o'stirish mashg'ulotlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish	949
<i>Xabilova Sitora Tursunmurod qizi, Ziyadullayeva Madina</i>	
Local Anesthesia and Conduction Anesthesia	952
<i>Zulfiya Makhmudovna, Buzruksoda Javohir</i>	
Современное состояние и проблемы подготовки педагогических кадров к инклюзивному образованию	957
<i>Плиева Руслана Владимировна</i>	



Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	962
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi logopat bolalarning emotsional intellektini shakllantirish usullari.....	966
<i>Ro'ziqulova Zarina Yusupovna</i>	
Sahnalashtirish va tasviriy faoliyat integratsiyasi – badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida	969
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Usmonaliyeva Yulduz Baxrom qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o'рни	974
<i>Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi</i>	
Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari.....	978
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Ro'zmetova Yulduz Odilbek qizi</i>	
Ta'lim va ishlab chiqarish klasterining nazariy-asosiy jihatları	983
<i>Samadova Mahbuba Nutfullo qizi</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyati jarayonida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	987
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatovna, Nozimjonova Xojiya Mo'minjon qizi</i>	
15-16 yoshli taekvondochilar muvozanat saqlash turg'unligi va harakat aniqligining mashg'ulot jarayonlarida o'sish sur'ati.....	991
<i>G. X. Ravshanov, A. X. Norov</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suhandonlik to'garagining bolalar nutqi va kommunikativ rivojiga ta'siri..	997
<i>Abduraximova Shahnoza Alikulovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	1000
<i>Asadova Nozima Abdixalil qizi, O. P. Aslanova</i>	
O'zbekistonda sport sohasini digitalizatsiya qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari.....	1003
<i>B. Y. Hamrayev</i>	
Pedagogik akmeologiya nuqtai nazaridan o'qituvchining prognozlash faoliyati	1008
<i>Bekmuratov Arziwbay Kojamuratovich</i>	
Milliy ta'lim tizimini isloh qilishda timss xalqaro baholash tadqiqotining o'рни.....	1011
<i>Darvishxo'jayev Abdurashid Abdulxakimovich</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida refleksiv tafakkurni rivojlantirish mazmuni	1015
<i>Dostonbek Bobojonov G'ofurovich</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida rag'batlantirish tizimidan foydalanishning didaktik ahamiyati.....	1019
<i>Umarova Mohichehra Ikromjon qizi</i>	
Kichik maktab davrida ma'naviy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari	1023
<i>To'laganova Mohinur Abduhakim qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari.....	1026
<i>Maxmudov Baxodirjon Baxromjon o'g'li</i>	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida rivojlantirish.....	1030
<i>Najmiddinova Gulnoza Odilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik ishlarni tashkil etish mazmuni	1035
<i>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayeva</i>	
Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarida ilgari surilgan ta'limiy-axloqiy qarashlar.....	1038
<i>Raximova Intizor Rustamovna</i>	
Raqamli resurslar asosida ertak va she'riy matnlar bilan ishlashning innovatsion metodlari	1041
<i>Sabirova Gullola G'ayratovna</i>	
Феномен русскоязычной литературы Узбекистана как пространство культурной памяти и художественного самоопределения.....	1045
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	



SAHNALASHTIRISH VA TASVIRIY FAOLIYAT INTEGRATSIYASI – BADIY- IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU,

"Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrası dotsenti (PhD)

Usmonaliyeva Yulduz Baxrom qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(maktabgacha ta'lim) 2-kurs magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda sahnalashtirish va tasviriy faoliyatni integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Sahnalashtirish faoliyati bolalarda obrazli tafakkur, hissiy idrok hamda ijodiy ifodani rivojlantiruvchi samarali vosita sifatida talqin etiladi. Tasviriy faoliyat esa bolalarning estetik didi, tasavvuri va ijodiy mustaqilligini shakllantirishga xizmat qilishi asoslanadi. Ushbu ikki faoliyatni integratsiyalash orqali badiiy-ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish samaradorligi yoritilib, pedagogik jarayonda integrativ yondashuvning afzalliklari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sahnalashtirish faoliyati, tasviriy faoliyat, integratsiya, badiiy-ijodiy qobiliyatlar, maktabgacha ta'lim, obrazli tafakkur.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical potential of integrating theatrical and visual activities in the development of artistic and creative abilities of senior preschool children. Theatrical activity is considered an effective means of fostering imaginative thinking, emotional perception, and creative expression. Visual activity, in turn, contributes to the development of aesthetic taste, imagination, and creative independence. The effectiveness of forming artistic and creative abilities through the integration of these activities is highlighted, and the advantages of an integrative approach in the pedagogical process are substantiated.

Key words: theatrical activity, visual activity, integration, artistic and creative abilities, preschool education, imaginative thinking.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются педагогические возможности интеграции театрализованной и изобразительной деятельности в развитии художественно-творческих способностей детей старшего дошкольного возраста. Театрализованная деятельность рассматривается как эффективное средство развития образного мышления, эмоционального восприятия и творческого самовыражения детей. Изобразительная деятельность, в свою очередь, способствует формированию эстетического вкуса, воображения и творческой самостоятельности. Раскрывается эффективность формирования художественно-творческих способностей на основе интеграции данных видов деятельности, а также обосновываются преимущества интегративного подхода в педагогическом процессе.

Ключевые слова: театрализованная деятельность, изобразительная деятельность, интеграция, художественно-творческие способности, дошкольное образование, образное мышление.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ayniqsa, ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida bolani tayyor bilimlarni egallovchi subyekt emas, balki ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turlarini integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yosh – bolalarda tasavvur, emotsional sezgirlik, obrazli tafakkur va ijodiy faollik faol shakllanadigan davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda sahnalashtirish va tasviriy faoliyat bolalarning ichki kechinmalarini ifodalash, o'z fikr va his-tuyg'ularini erkin namoyon etish imkonini beradi. Ushbu faoliyatlarni integratsiyalash esa bolalarning ijodiy rivojlanishida yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy maktabgacha ta'lim pedagogikasida bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi ustuvor ilmiy-pedagogik muammolardan biri sifatida talqin etilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda bola shaxsini tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi emas, balki ijodiy faol subyekt sifatida shakllantirish konsepsiyasi yetakchi paradigma sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, sahnalashtirish va tasviriy faoliyatni integratsiyalash orqali ta'lim-tarbiyani tashkil etish masalasi alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda.

Ismailova N.I. (2024) o'zining "Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining vazifalari" nomli ilmiy maqolasida sahnalashtirish faoliyatini bolalarda nutq madaniyati, emotsional ifoda, obrazli tafakkur va ijtimoiy moslashuvni rivojlantiruvchi kompleks pedagogik vosita sifatida talqin qiladi. Muallif sahnalashtirish faoliyatining asosiy vazifalari sifatida bolalarning hissiy tajribasini boyitish, ijodiy tasavvurini faollashtirish hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot mazkur maqolada sahnalashtirish faoliyatining nazariy-pedagogik asoslarini yoritishda tayanch manba sifatida foydalanildi.

Boyitova A. (2025) "Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning o'ziga xosligi" nomli tadqiqotida sahnalashtirishni ijodiy tafakkur va mustaqil ifodalash ko'nikmalarini shakllantiruvchi maxsus pedagogik muhit sifatida asoslaydi. Muallif dramatisatsiya, roli o'yinlar va sahna obrazlari orqali bolalarda fantaziya, empatiya va ijodiy tashabbusning rivojlanishini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Ushbu manba sahnalashtirish faoliyatining ijodkorlikka ta'sir mexanizmlarini ochib berishda konseptual asos sifatida ishlatiladi.

Tasviriy faoliyatning ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishdagi o'rni Raxmatova G. (2025) tomonidan "Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning kombinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish" nomli ilmiy ishda chuqur yoritilgan. Muallif tasviriy faoliyatni bolalarda estetik idrok, obrazli tafakkur va ijodiy mustaqillikni rivojlantiruvchi asosiy pedagogik mexanizm sifatida talqin qiladi. Tadqiqotda rasm chizish, applikasiya va konstruktorlik faoliyatining kombinatsion tafakkurga ta'siri ilmiy asosda ochib beriladi. Mazkur manba tasviriy faoliyat komponentining nazariy asosini mustahkamlashda ishlatildi.

Xalqaro tadqiqotlarda san'at faoliyatining ijodkorlikka ta'siri kompleks tarzda o'rganilgan. Bayanova L. va hammualliflar (2025) "The Influence of Art Activities on the Creativity of Children" nomli tadqiqotida san'at faoliyatlari (tasviriy san'at, drama, ijodiy o'yinlar) bolalarda ijodiy fikrlash, estetik idrok va erkin ifodalash qobiliyatini rivojlantirishi empirik ma'lumotlar asosida asoslab beriladi. Ushbu tadqiqot integratsiyalashgan san'at faoliyatining ilmiy asoslangan samaradorligini tasdiqlovchi manba sifatida qo'llanildi.

Griniuk M. (2021) "Arts-based action research on enhancing children's creativity through affect within participatory performance art and performance pedagogy" nomli ilmiy ishida sahnalashtirish va san'atga asoslangan pedagogika (arts-based pedagogy) orqali bolalarda ijodiy rivojlanish mexanizmlarini ochib beradi. Muallif performativ pedagogika, sahna harakati va emotsional tajribaning ijodiy rivojlanishga ta'sirini ilmiy-nazariy asosda tahlil qiladi. Ushbu manba sahnalashtirish faoliyatining ijodiy tafakkur va emotsional rivojlanishga ta'sirini asoslash uchun ishlatilgan.

Mahalliy fundamental manba sifatida Qodirova Z.S., Akbarov O.E., Abdug'opirova F.A., Xojimirzayeva Sh.Sh., Jumanova Sh.B. (2024) tomonidan yaratilgan "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" nomli monografiya sahnalashtirish va ijodiy faoliyatni metodik jihatdan tashkil etish mexanizmlarini yoritadi. Ushbu asarda sahnalashtirish, tasviriy faoliyat, ijodiy o'yin va dramatisatsiyaning integratsiyalashgan modeli taklif etilgan bo'lib, u maktabgacha ta'lim amaliyotida badiiy-ijodiy qobiliyatlarni kompleks rivojlantirish konsepsiyasini ilmiy asoslaydi. Mazkur manba integratsiya modelini nazariy va amaliy jihatdan asoslash uchun asosiy ilmiy tayanch vazifasini bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sahnalashtirish va tasviriy faoliyat integratsiyasining maktabgacha katta yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'sirini aniqlash maqsadida asosan pedagogik eksperiment, kuzatuv hamda tahlil–umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Pedagogik eksperiment metodi tajriba va nazorat guruhlarini tashkil etish orqali integratsiyalashgan mashg'ulotlar modelining samaradorligini aniqlashga xizmat qildi. Tajriba jarayonida sahnalashtirish va tasviriy faoliyat asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar tizimli ravishda o'tkazilib, bolalarning ijodiy faolligi, obrazli tafakkuri hamda badiiy ifoda ko'nikmalaridagi o'zgarishlar solishtirma tahlil asosida baholandi.



Kuzatuv metodi orqali bolalarning mashg'ulot jarayonidagi emotsional holati, faol ishtiroki, ijtimoiy muloqoti va ijodiy tashabbuskorligi tizimli tarzda o'rganildi. Ushbu metod bolalarning tabiiy sharoitdagi rivojlanish dinamikasini aniqlash hamda pedagogik ta'sir samaradorligini real holatda baholash imkonini berdi.

Tahlil va umumlashtirish metodi yordamida olingan empirik ma'lumotlar, ijodiy faoliyat natijalari va kuzatuv xulosalari ilmiy jihatdan qayta ishlanib, umumiy xulosalar chiqarildi hamda integratsiyalashgan faoliyatning pedagogik samaradorligi nazariy asosda yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim jarayonida bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sahnalashtirish va tasviriy faoliyatni o'zaro integratsiyalash orqali ta'lim-tarbiyani tashkil etish bolalarda ijodiy fikrlash, estetik did, emotsional sezgirlik hamda mustaqil ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Sahnalashtirish faoliyati – bolalarning rolli o'yinlar, dramatizatsiya, ertak va hikoyalarni sahna ko'rinishida ifodalashi orqali amalga oshiriladigan ijodiy jarayondir. Ushbu faoliyat:

- nutq madaniyatini rivojlantiradi;
- tasavvur va fantaziyani boyitadi;
- jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi;
- hissiy tajribani kuchaytiradi.

Bolalar sahnada obrazga kirish jarayonida o'z his-tuyg'ularini erkin ifodalashni o'rganadilar.

Tasviriy faoliyat (rasm chizish, bo'yash, loydan yasash, applikatsiya) bolalarning estetik idroki va mayda motorikasini rivojlantiradi. Ushbu faoliyat orqali:

- rang va shaklni his qilish qobiliyati oshadi;
- ijodiy mustaqillik rivojlanadi;
- badiiy tafakkur shakllanadi.

Tasviriy faoliyat bolaning ichki kechinmalarini vizual obrazlar orqali ifodalash imkonini beradi.

Mazkur ikki faoliyatni integratsiyalash jarayoni yanada boy pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Jumladan:

- sahna uchun dekoratsiya va kostyumlarni bolalarning o'zlari chizishi yoki yasashi;
- sahnalashtiriladigan ertak qahramonlarini avval tasviriy faoliyat jarayonida yaratish;
- rasm asosida sahna ko'rinishlarini tuzish.

Bunday integratsiya bolalarda obrazni yaxlit idrok etish, voqea va qahramonlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan faoliyat natijasida bolalarda:

- ijodiy fikrlash faollashadi;
- estetik did va badiiy tasavvur kengayadi;
- o'z g'oyalarini turli shakllarda ifodalash ko'nikmasi shakllanadi;
- tashabbuskorlik va o'ziga ishonch ortadi.

Bu jarayon bolani nafaqat san'atga, balki hayotiy muammolarga ijodiy yondashishga ham o'rgatadi.

Bolalar ijodkorligini rivojlantirish quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- bolalarga berilgan ijodiy vazifalarni bajarish;
- ijro jarayonida muammolarni hal qilish;
- bolalar uchun ijodiy maydonni yaratish;
- o'yin jarayonida mashqlarni puxta o'rgatish;
- etyudlarni bajarish.

Aqlan rivojlanish va fikr tarbiyasini yaxshilash uchun bolaning tafakkuri, zakovati, xotirasi hamda mushohada qobiliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi mashg'ulotlar o'tkaziladi, unga turli ibratli ertak va hikoyalar so'zlab beriladi, aqlan zakovatini o'stiradigan o'yinlar va mashg'ulotlarga jalb qilinadi, zarur bilim va ma'lumot-



lar berib boriladi. Odatda, bolalar kichik yoshda har bir ko'rgan narsasi haqida so'raydigan, ularni tekshirib, sinab ko'radigan, tinimsiz savollar beradigan bo'ladi. Bunday paytda ularning savollariga erinmay, hafsala bilan, tushunarli va sodda qilib javob qaytarish, ertak va hikoyalarni rollarga kirib sahnalashtirishga jalb etish, obrazlarga kirib ijro etishga o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir.

Bolaning ijodiy rivojlanishida ruhiy tarbiya ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bolaga hayot va o'lim, axloq va odob kabi boqiy mavzularda sodda, bola ruhiyatiga mos suhbatlar hamda rollarga kirib tushuntirishlar olib boriladi. Bu jarayonda quvnoq kayfiyat va yaratuvchanlik ishtiyoqi shakllantirib boriladi, chunki sog'lom ruhiyatgina bolaning butun vujudini ijodiy emotsiyaga yo'naltira oladi. Hissiyotga beriluvchan va ta'sirchan bolalarda haqiqatni ko'ra bilish, jasurlik va matonat kabi xislatlarni shakllantirish, aksincha, diydasi qattiq bolalarning qalbini yumshatadigan omillar orqali ularni mayin hissiyotli, ijod bilan ovunadigan qilib tarbiyalash muhimdir.

Bolani ruhiy tushkunlikka tushishdan, qiyinchiliklar oldida esankirab qolishdan himoyalashda sahnalashtirish faoliyatiga yo'naltirishning ahamiyati juda katta. Ta'lim amaliyotida bolaning qaysarlik davrida (to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha) olib boriladigan iroda tarbiyasida biroz qat'iyat va chidam talab etiladi, ammo ayni vaqtda u sevgi, mehribonlik va samimiylikni ham his etib turishi lozim. Ushbu jarayon bolaning har qanday faoliyatda erkin va mustaqil bo'lishiga yordam beradi. Bayram ertaliklari, ertak va rivoyatlarni sahnalashtirish jarayoni har qanday yoshdagi bolaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir etishi amaliy tajribada kuzatiladi.

Sahnalashtirish faoliyati maktabgacha ta'limda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. U bolalarda nutq madaniyati, mimika, harakat, emotsional ifoda hamda ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Sahnalashtirish jarayonida bola obrazga kiradi, personaj xarakterini anglaydi va uni o'zicha talqin qiladi. Bu holat ijodiy tafakkurning faollashuviga olib keladi. Ilmiy tadqiqotlarda sahnalashtirish faoliyatining bolalarda obrazli tafakkur, empatiya va ijodiy tasavvurni rivojlantirishi isbotlangan. Dramatizatsiya jarayonida bola voqealarni qayta yaratadi, syujetni kengaytiradi va o'z g'oyalarini obraz orqali ifodalaydi. Natijada sahnalashtirish faoliyati bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tabiiy va samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Sahnalashtirish jarayonida ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning muhim asoslaridan biri jismoniy sog'lomlik, chiniqish va tananing bola yoshiga mos rivojlanganligidir. Allomalar ruhiy va moddiy hayotni narvonning ikki zinapoyasiga qiyoslaydilar, ya'ni har ikki tomon baravar rivojlanishi lozim. Bolaning aqliy va ruhiy rivoji bilan bir qatorda jismoniy sog'lomligi, chiniqqanligi va mashaqqatlarga bardoshliligi muhim hisoblanadi. Bola rol ijro etish jarayonida ijobiy va salbiy qahramonlarni talqin qilib, kuchli va kuchsiz, irodali va zaif obrazlarni solishtiradi, mulohaza yuritadi va xulosa chiqaradi. Bu esa unda jismoniy va aqliy sog'lomlik muvaffaqiyatga erishish omili ekanini anglashiga yordam beradi.

Tasviriy faoliyat bolalarda estetik idrok, tasavvur va ijodiy mustaqillikni shakllantiruvchi asosiy faoliyat turlaridan biridir. Rasm chizish, bo'yash, applikasiya va konstruktorlik ishlari bolalarning tafakkurini faollashtirib, ichki dunyosini vizual obrazlar orqali ifodalash imkonini beradi. Tasviriy faoliyat jarayonida bola rang, shakl va kompozitsiyani mustaqil tanlaydi, bu esa ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Ilmiy manbalarda tasviriy faoliyatning bolalarda ijodkorlik, estetik did va badiiy tasavvurni rivojlantirishdagi o'rni keng yoritilgan.

Sahnalashtirish va tasviriy faoliyatni integratsiyalash bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyatlarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Integratsiyalashgan mashg'ulotlarda bolalar sahna obrazlarini tasviriy faoliyat orqali yaratadi, dekoratsiyalar chizadi, qahramonlarning tashqi ko'rinishini loyihalaydi va ularni sahnalashtirish jarayonida jonlantiradi. Ushbu yondashuv bolalarning ijodiy tafakkurini faollashtirib, obrazni avval vizual shaklda tasavvur qilish, so'ngra uni harakat va nutq orqali ifodalash imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotlar va pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, sahnalashtirish va tasviriy faoliyat integratsiyasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Bunday mashg'ulotlar jarayonida bolalar faol ishtirokchi sifatida ijodiy jarayonning to'laqonli subyektiga aylanadi. Natijada bolalarda ijodiy faollik ortadi, obrazli tafakkur rivojlanadi, estetik did va badiiy tasavvur shakllanadi hamda o'z-o'zini ifodalash ko'nikmalari mustahkamlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari sahnalashtirish va tasviriy faoliyat integratsiyasi bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi ekanligini ilmiy asosda tasdiqladi. Tadqiqot jarayonida integratsiyalashgan mashg'ulotlar modeli bolalarning obrazli tafakkuri, estetik didi, ijodiy tasavvuri, emotsional ifoda madaniyati hamda mustaqil ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Sahnalashtirish orqali shakllanadigan dramatik idrok va rolli faoliyat tasviriy faoliyat orqali rivojlanadigan vizual-estetik idrok bilan uyg'unlashgan holda bolaning badiiy tafakkurini kompleks rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan isbotlandi.



Tadqiqot natijalari integratsiyalashgan yondashuv an'anaviy, alohida-alohida o'qitish modeliga nisbatan yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanini ko'rsatdi. Xususan, bunday yondashuv bolalarning ijodiy faolligini kuchaytirish, erkin fikrlashni shakllantirish, badiiy ifoda vositalaridan ongli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot xulosalariga tayangan holda quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi: sahnalashtirish va tasviriy faoliyat integratsiyasiga asoslangan mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim muassasalari hamda boshlang'ich ta'lim tizimiga metodik model sifatida joriy etilishi maqsadga muvofiq; integratsiyalashgan faoliyat asosida maxsus o'quv-metodik qo'llanmalar, mashg'ulot ishlanmalari va didaktik materiallar ishlab chiqilishi zarur; pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida integratsion pedagogika, badiiy-ijodiy faoliyat metodikasi va sahnalashtirish texnologiyalariga oid maxsus modullar joriy etilishi lozim; shuningdek, mazkur yo'nalishda kompleks tadqiqotlar olib borish orqali integratsiyalashgan faoliyatning yosh xususiyatlariga mos modellarini ishlab chiqish ilmiy istiqbolli vazifa sifatida belgilanishi tavsiya etiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari sahnalashtirish va tasviriy faoliyat integratsiyasini zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida asoslashga xizmat qiladi hamda badiiy-ijodiy rivojlanishga yo'naltirilgan ta'lim tizimini takomillashtirishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega ilmiy manba sifatida foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismailova, N. I. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining vazifalari. *Science and Education*, 5(3), 2024. 516–521 B.
2. Boyitova A. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning o'ziga xosligi. // *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 3(10). 2025.
3. Raxmatova G. Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning kombinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish. // *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 3(10). 2025.
4. Bayanova L. et al. The Influence of Art Activities on the Creativity of Children. 2025.
5. Khasanova, S. T., & Vasila, T. (2023, May). Development of imaginary-creative competences in the process of preparing future teachers for profession. In *Next Scientists Conferences* (pp. 84-91).
6. Khasanova, S., & Zufarova, L. (2023, June). Development Of Communicative Skills In Pre-School Children Through Theater Games. // *In International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 1-5).
7. Khasanova, S. (2021). Formation of national pride in children through teaching description of historical monuments in Uzbekistan. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(2), 734-738.
8. Xasanova, S. (2022). Организация развивающего образовательного пространства как фактор готовности ребенка к школе. // *Science and innovation*, 1(B8), 2199-2203.
9. Griniuk, M. (2021). Arts-based action research on enhancing children's creativity through affect within participatory performance art and performance pedagogy. *Creativity Studies*, 14(2), 577-592. Griniuk M. Arts-based pedagogy and creative development in early childhood education.
10. Qodirova Z.S., Akbarov O.E., Abdug'opirova F.A., Xojimirzayeva Sh.Sh., Jumanova Sh.B. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish. *Namangan-2024*. 215 b.
11. Maxmutazimova, Y. (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarni kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda STEAM texnologiyasidan foydalanish. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 3(1).
12. Rakhmatovna, M. Y. (2026). The Set Of Expected Outcomes In The Implementation Of The Pedagogical Diagnostic Process For The Development Of Speech In Preschool-Aged Children. // *Shokh Articles Library*, 1(1).
13. Rakhmatovna, M. Y. (2026). The Urgentificity Of Improving The Communicative Competence Of Pre-School Educators With The Help Of Information Technologies. // *Shokh Articles Library*, 1(1), 873-876.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.